


Vatanparvar tashkiloti 30 yoshda...



Vatanparvar tashkiloti 30 yoshda...

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tashkil topilganligining 30 yilligi munosabati bilan, "Vatanparvar" tashkiloti Surxondaryo viloyati kengashi tashabbusi bilan viloyat hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi, Yoshlar Ittifoqi viloyat kengashi, viloyat Janubiy Operativ qo'mondonligi, IIV YXHB Termiz shahar bo'limi, Termiz shahar Madaniyat bo'limi, Termiz shahar Xalq ta'limi bo'limi va Surxondaryo teleradiokompaniyasi hamda boshqa hamkor tashkilotlar hamkorligida joriy yilning 19 noyabrb'i kuni Termiz shahrida joylashgan "Yoshlar markazi" binosida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti 30 yoshda" shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirda uzoq yillar davomida tashkilot ravnaqiga o'zining xissasini qo'shib, hozirgi kunda keksalik gashtini surayotgan mehnat fahriylari, "Vatanparvar" tashkiloti Surxondaryo viloyati kengashi tizimida faoliyat yuritayotgan barcha ishchi-xodimlar, sportchilar, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan haydovchilik kurslarida ta'lif olayotgan yoshlar, viloyat hokimligi vakillari, mudofaa vazirligiga qarashli 11506-harbiy qism,

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari, Termiz shahridagi 14-umumta'lim maktabi qoshidagi "EVEREST SURXON" nodavlat ta'lif muassasasi o'quvchilari va mahalalardan uyushmagan yoshlar ham ishtirok etishdi.

Surxondaryo viloyati hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rinosari Qodirov Bahodir Raximovich madaniy-ma'rifiy tadbirni ochiq deb e'lon qilib "O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining 30 yillik faoliyati haqida so'zladi. B.Qodirov bugungi tadbir tashkilotchilarini va ishtirokchilarini "Vatanparvar" tashkilotining 30 yillik bayrami bilan tabriklab, tashkilot rahbariyatiga va ishchixodimlariga kelgusi mashaqatli ishlarida muvoffaqiyatlar tiladi. So'z " "Vatanparvar" tashkiloti Surxondaryo viloyati kengashi raisi Yusupov Zufarjon Yusupovichga berildi. Z.Yusupov "Vatanparvar" tashkiloti o'z nutqida "Vatanpavar" tashkiloti tarixi, bosib o'tgan mashaqatli yillari davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusidagi amalga oshirilishi belgilab olingan rejaviy dasturlari haqida tadbir ishtirokchilarini tanishtirib, bugungi bayram bilan barchani tashkilot rahbariyati va ishchi-xodimlari nomidan tabriklab o'tdi.

Tadbir davomida viloyat kengashi raisi o'rinosari Eshmatov Azamat Ismatullaevich tomonidan Markaziy kengashi raisining "Vatanparvar" tashkiloti tashkil topganligining 30 yilligi munosabati bilan viloyat kengashi va tasarrufdagi tashkilotlarning raxbar xodimlari va faxriylari, hamkor tashkilotlarning taqdirlash to'g'risida"gi buyrug'ini o'qib eshittirdi.

Shundan so'ng viloyat hokimi o'rinosari B.Qodirov va Viloyat kengash raisi tomonidan bir qator xodimlar, mehnat faxriylari va hamkor tashkilotlar vakillarini "Vatanparvar" tashkilotiga 30 yil" esdalik belgisi, faxriy yorliqlari hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Joriy yilning 19 noyabr kuni o'tkazilgan tadbir juda ko'tarinki ruhda, madaniyat xodimlari tomonidan turli kuy-qo'shiq va raqlar hamhongligida o'tdi. Tadbir ishtirokchilarida tadbir haqidagi tessurotlar a'lo ekanligi, keyingi "Vatanparvar" tashkilotining barcha tadbirlarida ishtirok etishlarini bildirib o'tishdi. "Vatanparvar" 30

Yoshing muborak!...

